



## ISMOIL GASPRINSKIYNING BADIY ASARLARI TAHLILI

*Boymurodova E'tiborxon Ismoiljon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli jadid mutafakkiri Ismoil Gasprinskiyning badiiy merosi hamda uning asarlaridagi asosiy g'oyaviy yo'nalishlar tahlil qilinadi. Adibning nasriy asarlari misolida o'sha davrdagi Sharq va G'arb hayoti, ilm-fan taraqqiyoti hamda ijtimoiy adolat masalalarini qanday talqin qilgani ochib beriladi. Tadqiqotda Gasprinskiyning orzusidagi baxtli jamiyat, ayollar huquqi va millatni uyg'otish borasidagi qarashlari badiiy misollar yordamida batafsil yoritiladi. Shuningdek, maqolada adibning o'z asarlari orqali xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, jahon tamaddunidan xabardor qilish mahorati va bu asarlarning bugungi kun uchun ahamiyati yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ismoil Gasprinskiy, “Dorur-rohat musulmonlari”, “Mukolamai salotin”, “Farangiston maktublari”, “Xotinlar o'lkasi”, jadid adabiyoti, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy islohotlar, badiiy tahlil, milliy uyg'onish.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi hududida yashovchi musulmon va turkiy xalqlar orasida ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar davri boshlandi. Bu davrda milliy ong uyg'onishi, ta'lim tizimini modernizatsiyalash va madaniy rivojlanish masalalari kun tartibiga qo'yildi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda Ismoil Gasprinskiy (1851-1914) turkiy xalqlar tarixida o'chmas iz qoldirgan shaxs sifatida namoyon bo'ldi. Ismoilbek Gasprinskiy Rusiya jadidchilik harakatining rahnamosi edi. U Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasadi, “usuli jadid” nomi bilan tarixga kirgan “usuli savtiya”ni boshlab berdi. XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligiga – jadidchilikka asos soldi. Ismoilbek badiiy



iqtidorga ham ega edi. Uning “Farangiston maktublari”(1887), “Dorur-rohat musulmonlari”(1889), “Sudan maktublari” (1889), “Xotinlar o‘lkasi” (1990), “Gulbobo ziyorati” (1908), “Arslon qiz”, “Kun tug‘di”, “Ivan va Sulaymon” (1897), “Baloyi islom” (1905), “Mukolamai salotin”(1906) kabi ko‘plab nasriy asarlari bor. Ular mazmun-mohiyatida, tabiiyki, Ismoilbek Gasprinskiyning boshqa ijod namunalarida aks etgan, amaliy faoliyatida ko‘zga tashlangan g‘oya, ezgu niyat, estetik ideal mujassam topgan.

Turkiy xalqlar madaniyati, adabiyoti, ma’naviy-ma’rifiy qarashlariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan bu ulkan adibning ijodi sobiq Ittifoq davrida jiddiy tadqiq qilinmadi. Ammo XX asr oxiri va yangi asr boshida O‘zbekiston ilmiy-adabiy muhitida chinakam gasprinskiyshunoslikning yangi bir bosqichi yuzaga keldi. Bu davrda yozilgan maqolalar, risolalar, qo‘llanmalar Gasprinskiy asarlarining tabdili, tarjimai, boshqa ijodkorlar bilan muloqotlari, adibning sayohatlari, asarlarining bibliografik ko‘rsatkichi, ayrim ta’sirlanuv omillari – umumlashtirib aytganda – ko‘proq ijtimoiy talqin va ma’lumot berguvchi xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar bo‘ldi.

Gasprinskiy o‘z adabiy-ijtimoiy g‘oyalari, millatparvarlik qarashlari bayoni uchun maxsus poetic usullardan foydalandi. Jahon adabiyoti tajribalariga tayanib, hikoya va roman janri imkoniyatlariga murojaat qildi. Masalan, “Mukolamai salotin” (Sultonlar suhbat) hikoyasida adib o‘ziga xos uslubni qo‘llaydi. Voqelik uchun aniq bir makon – “Turba shoh Temur”, “Temur qabri”, “Temurning so‘nggi manzili” bo‘lgan “maqbara”ni sultonlar majlis qilib, o‘zaro suhbatlashishlari uchun makon qilib tanladi. Adib xayol ummoniga sho‘ng‘idi. Turli zamonlarda yashab o‘tgan sultonlarni (Sulton Abdulazizxon, Nasriddinshoh, amir Nasrulloxon, Ismoil posho, otaliq G‘ozi Ya‘qubxon, Xudoyorxon, Shayx Shomil) o‘z ishlari yuzasidan bamisoli “savol-javob qilinishlari” uchun bir joyga jamlaydi. “Turba shoh Temur”da sekin-asta o‘z o‘rinlarini egallagan turk



sultonlari “hisobot berish”ga yig’ilishadi. Tarixiy vaqt-zamon e’tiboridan bu sultonlar bir-birlari bilan ko’rishmagan, o’zaro uchrashmagan bo’lishlari ham mumkindir. Demak, bu o’rinda adibning poetic mahorati shundaki, u vaqtning fizik o’lchamlari, tarixiy davr chegaralarini parchalab tashlaydi. Zamon tushunchasi sultonlarning o’z hukmronlik qilgan davri uchun muhim, biroq ayni suhbat jarayonida vaqt-zamon o’z ahamiyatini yo’qotadi. Yurt taqdiri va fuqaroning ahvoloti ahamiyatli, hurlik va xushyorlik muhim.

“Farangiston maktublari” nomidan ko’rinib turganidek voqealar Farangistonda kechadi. Mulla Abbos haqiqiy jadiddir. U Toshkent madrasalaridan birida tahsil ko’radi. 22 yoshga to’lganida otasi vafot etadi va undan qolgan bitmas-tuganmas boyluk bilan dunyoning islom dunyosida muqaddas hisoblangan joylarini ziyorat qilishni xohlaydi. U shu yoshigacha faqat diniy ilmlarni o’rgangan va endilikda sayohatga chiqadigan mamlakatlarida ro’y beradigan voqealar unga yangi dunyo eshiklarini ochadi. Boshidan kechirgan har bir voqealari unga o’zining tor dunyosidan chiqish, boshqa olam sir-sinoatlarini anglashga yordam beradi. O’qigan kitoblari orqali o’zi ziyorat qilishni istagan ziyoratgohlarning Ovrupoda joylashganligini bilib, “aziz turkiy avliyolarning muqaddas qadamjolariga” sayohatni Ovrupodan boshlashga ahd qiladi. Shuni ham unutmazlik lozimki, Mulla Abbos madrasada ta’lim olgani va har qancha diniy bilimlarni egallaganiga qaramay, o’z davri insonlaridan “yangilikni qabul qila oluvchi” shaxs ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bosh qahramon – qissago’y Mulla Abbos Toshkandiy Farangistonga borguncha, “Fransaviy” laqabini olguncha bo’lgan davrda yo’lda ko’rganlari va boshidan kechirganlarini hikoya qilib beradi. Gasprinskiy qahramonini yo’ldagi, Farangistondagi mehmonxona, ijaraona, bozor, hatto qamoqxonalargacha olib kiradi. Gasprali asarni kunlik voqealar bilangina bog’lamaydi. Tarixiy faktlar orqali sayohat qilinayotgan mamlakatlar haqida to’liq geografik ma’lumotlar ham berib o’tadi. Asar boshida Andaluz fathi, Jabalut-Toriq (Gibraltar) bo’g’oziga berilgan nomning tarixiy



asoslar yordamidagi qisqa bayonini berib o'tadi. Bu ma'lumotlar orqali esa o'quvchini sekin-astalik bilan “Dorur-rohat musulmonlari” ya'ni “Farog'at o'lkasi”ning vujudga kelishi bilan tanishtiradi. Mulla Abbos juda ko'p narsalarga havas qiladi. Aslida muallif o'z millatdoshlarining hayoti shunday go'zal bo'lishini istagan edi. Dunyodagi ilg'or mamlakatlarning hayot tarzidan ibrat olishga, u yerlarni borib ko'rishga ko'p da'vatlar qilar edi. Shu bois bir o'rinda “yurt kezmoq, sayohat qilmoq – ulug' bir darsxonada dars olmoq maqomida”, deb yozadi.

“Dorur-rohat musulmonlari” da Shayx Jalol asosiy obrazlardan biri sifatida o'rtaga chiqadi. Bu asarda ham Mulla Abbos sayyoh o'laroq o'z boshidan o'tganlarini bayon qiladi. Asarda Gasprinskiy Al Hamro saroyidan g'aroyib bir yerosti yo'li orqali Mulla Abbosni o'zga bir mamlakatga – “Dorur-rohat” ga sayr qildiradi. Diqqat qilinsa, bu reallikdan ko'ra xayolot mahsuli bo'lgan bir makondir. Biroq adib o'quvchini shunga ishontiradi. O'sha o'lkada 300 ming aholi, 40 ta qishloq va bitta shahar borligini yozadi. Bu saodatli makonning tabiati, odamlarining trmush tarsi, ijtimoiy holati – hamma-hammasi taraqqiyot namunasi bo'lib, havas qilgulikdir. “Dorur-rohat” da adibning ma'naviy qarashlari, ideallari, ko'ngli, dardi, orzusi, armoni, alami mujassam. Mulla Abbos o'sha mamlakatda 40 kun yashaydi, ko'rganlarini bayon qiladi. Dorur-rohat – Gasprinskiy yaratgan “fozil odamlar” mamlakati.

Gasprinskiyning “Xotinlar o'lkasi” asarida yeti kishi Jazoir dan Sudanga qarab yo'lga chiqadi, “Sahroi Kabirning qum daryosi”da 40 kun yurgach, qum va tuz bo'roniga uchrab to'rt kun adashadi va oqibat ayollar hukmronlik qiladigan xotinlar o'lkasiga duch keladi. Bu asarda ham hikoyanavis – Mulla Abbos. Musofirlar asir tushadi. Malika saroyiga olib boriladi. Xotinlar hukmronlik qiladigan mamlakat saroyining ichki tartib-qoidalari, ayol va erkaklar munosabatlari, oyog'i osmondan kelgan telba-teskari dunyo mashmashalari



bayon qilinadi. Bu o'lkada xotinlar erkaklar o'rnini egallagan, erkaklar esa xotinlardek uyda o'tiradi, yuzini yopib yuradi, bezanadi, yuzlariga atir-upa surtadi... Musofirlar asirlikdan bir amallab qochib qutiladi. Asar Gasprinskiyning ulkan bir kinoyasi, pichingidek taassurot qoldiradi. Bunday kinoyaviy usul va erkaklarning o'zaro insoniy haq-huquqlari ustida bosh qotirishga undaydi. Xotinlar o'lkasi – xayoliy bir makon, adibning badiiy tafakkuri mahsulidir.

Gasprinskiy asarlari tadqiqi natijasida muhim bir ilmiy-nazariy mulohazani bayon qilish mumkin. Adib asarlarida u badiiy yoki publitsistik bo'lsin, ilmiy yoki tarixiy bo'lsin – barcha-barchasida millat va el-yurt uchun kuyinish, millat va mamlakat manfaati uchun ta'sirli, foydali, haqqoniy so'z aytish, turkey millatlarning, islom millatining dunyo ilm-faniga, madaniyati va san'atiga qo'shgan hissasini ta'kidlash kabi qator ezgu niyatlar yaqqol ko'rinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: 2018, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Begali Qosimov. "Ismoilbek Gasprali", - Toshkent. G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1992.
3. Ergashev B. Jadidchilik harakati va Ismoil Gasprinskiy g'oyalarining O'rta Osiyoga ta'siri. - Toshkent: Fan 2018.
4. Abdirashidov Z. Ismail Gasprinskiy i "Tarjumon". - Toshkent: Akademyashr, 2016.
5. Shomuqimov L.R. "ISMOIL GASPRINSKIYNING HAYOT YO'LI VA IJODIY MEROSI" maqolasi.